# Muammoli seminar

2018 yil 23 fevral kuni TIQXMMI “Iqtisodiyot va menejment” fakulteti B-108 oʻquv auditoriyasida soat 10:00 da fakultetning “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalariga “Alimkent PTZ” tashqi auditori “Granit audit” MChJ direktori Xoʻjayev Baxtiyor Odilxonovich, “Oʻzbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi me’yoriy xujjatlarni takomillashtirish” mavzusida muammoli seminar oʻtkazdi. Ma’ruza davomida fakultet dekani O.Kucharov, “BH va A” kafedrasi mudiri M.Mamatqulov hamda fakultet talabalari ishtirok etishdi. Ma’ruzachi bugungi kunda audit va buxgalteriya sohasiga oid me’yoriy xujjatlar bilan tanishtirib oʻtib, mavjud muammolar va ularning yechimi boʻyicha oʻz fikr mulohazalari bilan oʻrtoqlashdi.Seminar  qizgʻin bahs munozaralar, savol-javoblar tarzida oʻtdi. Ma’ruzachi talabalarning audit va buxgalteriya sohasiga oid qiziqtirgan savollariga oʻz javoblarini berdi hamda talabalarning oʻquv amaliyotlarini tashkil etishda “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi bilan hamkorlik qilish boʻyicha kelishib olindi.

**Mamatkulov Murodjon Shukurovich, "Buxgalteriya xisobi va audit" kafedrasi mudiri**